

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MILLIY MUSIQA CHOLG'ULARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY PEDAGOGIK ASOSLARI

**Mamatov Mashrab**

Respublika musiqa va san'at kolleji katta o'qituvchisi,  
Qori Niyoziy nomidagi PFITI mustaqil izlanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12529008>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida milliy musiqa cholg'ularidan foydalanishning nazariy-amaliy asoslari pedagogik jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, o'quvchilarning intellektual qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishda milliy musiqa cholg'ularining o'rni tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** intellekt, qobiliyat, xalq milliy cholg'ulari, musiqa madaniyati, pedagogik asos, umumta'lim maktablari.

## THEORETICAL PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF USING NATIONAL MUSICAL INSTRUMENTS IN HIGH SCHOOLS

**Abstract.** In this article, the theoretical and practical foundations of using national musical instruments in secondary schools are analyzed from a pedagogical point of view. Also, the role of national musical instruments in the formation and development of students' intellectual abilities is analyzed.

**Key words:** intellect, ability, national folk instruments, musical culture, pedagogical basis, general education schools.

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ МУЗЫКАЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В ВУЗАХ

**Аннотация.** В данной статье с педагогической точки зрения анализируются теоретические и практические основы использования национальных музыкальных инструментов в общеобразовательной школе. Также анализируется роль национальных музыкальных инструментов в формировании и развитии интеллектуальных способностей учащихся.

**Ключевые слова:** интеллект, способности, национальные народные инструменты, музыкальная культура, педагогическая основа, общеобразовательные школы.

Yoshlarning intellektual qobiliyatlarini ta'lim tizimlarida shakllantirish va rivojlantirish davlat ta'lim standartlari hamda milliy o'quv dasturining asosiy maqsadidir. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning kognitiv kamolotini, intellektual qobiliyatlarini, ijodiy iqtidorlarini yuzaga chiqarish, uni to'g'ri yo'naltirish uchun ko'plab dasturlar, ish rejalar, chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Ta'lim tizimlarida uzviylik va izchillikni ta'minlagan holda har bir o'quvchining qobiliyatlarini aniqlash hamda ushbu iqtidorni ta'lim olishning samaradorligini ta'minlashga yo'naltirish kabi maqsadlar bugun yetakchilik qilmoqda.

Xalq musiqa cholg'ulari vositasida o'quvchilarning intellektual qobiliyatini shakllantirish nazariyasini ishlab chiqish tadqiqotimizning maqsadi sananaladi. Obyekti esa umumta'lim maktablarida xalq milliy cholg'ularini o'rgatish natijasida o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va mexanizmlarini ishlab chiqish jarayonidir. O'quvchilarning intellektual qobiliyatlari shakllanishi va

rivojlanishining pedagogik shart-sharoitlari va mexanizmlarini xalq milliy cholg'ularini o'rgatish asosida takomillashtirish, pedagogik jihatlarini aniqlash tadqiqotimiz predmetidir.

*Tadqiqotning vazifalari:*

1. Maktab ta'limida o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini aniqlashda "Musiqqa madaniyati" fanining o'rni va ahamiyatini aniqlash;
2. Xalq milliy cholg'ulari vositasida olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar natijasida o'quvchida manaviy, madaniy, milliy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish;
3. O'quvchilarda xalq milliy cholg'ulari vositasida olib boriladigan mashg'ulotlar natijasida intellektual qobiliyatlarning rivojlanishini o'rganish;
4. Xalq milliy cholg'ulari vositasida o'quvchilarning psixomotor xususiyatlarini eksperimental tadqiq etish;
5. Umumta'lim maktablarida xalq milliy cholg'ulari vositasida o'quvchilarning intellektual qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik metodlarini ishlab chiqish.

Intellekt (lot. bilish, tushunish, idrok qilish) – insonning aqliy qobiliyati. Hayotni, atrof-muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zlashtirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; Intellekt tarkibiga idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, so'zlash va h.k. psixik jarayonlar kiradi.<sup>1</sup>

Qobilyat – insonning individual salohiyati, imkoniyatlari. Qobilyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi, qobilyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobilyatning yetakchi xususiyatlaridan biri – narsa-hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilishdir.<sup>2</sup>

O'quvchilarda xalq milliy cholg'ulari vositasida ijodkorlik qobiliyati shakllantiriladi.

Ijodkorlik qobiliyati – insonning ijodiy qarorlar qabul qilish, tushunish, qabul qilish va tubdan yangi g'oyalarni yaratish qobiliyatidir. Shuningdek, aqliy qobilyatga ham kuchli ta'sir ko'rsatib, o'quvchida yodlab qolish, tahlil qilish, analiz va sintez qilish, xulosalash kabi bir qator jarayonlarni shakllantiradi va rivojlantiradi.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi xalq milliy cholg'ularini o'rgatish va o'qitishga oid metodik nazariyalarni ishlab chiqish bugungi ta'lim tizimimiz uchun dolzarb sanaladi. Bu esa tadqiqotning dolzarbligini belgilovchi asosiy omillardandir. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-fevraldagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2023-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2019-yil 30-sentyabr PQ-4467-son "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek,

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Тошкент, Б. 216

<sup>2</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Тошкент, V жилд. Б.318

mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda milliy musiqa cholg'ularining ta'lim tizimidagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan.

Tadqiqot mavzusining o'rganilganlik asosini falsafa, pedagogika, psixologiya, fiziologiya, musiqashunoslik sohalaridagi ishlar tashkil etadi, xususan jahonda:

- *musiqa san'atining shaxs shakllanishidagi o'rni haqidagi eng muhim qoidalar*: Suqrot, Platon, Aristotel, Pifagor, Y.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, A.L.Gotsdiner, V.V.Medushevskiy, E.V.Nazaykinskiy, G.S.Tarasov va boshqalar tomonidan ilgari surilgan;

- Y.K.Babanskiy, I.Ya.Lerner, M.N.Skatkin, V.A.Slastenin va boshqalar tomonidan belgilab berilgan psixologiya-pedagogika fanining nazariy tamoyillari; shaxsning ma'naviy kamolotida san'atning o'rni haqidagi ta'limot (Yu.V. Borev, M.S.Kagan);

- G.L.Troshin, L.S.Vygotskiy, V.I.Lubovskiy, J.I.Shif va boshqalar tomonidan sog'lom bolalar va rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarning aqliy rivojlanishida kontseptual qoidalar;

- *Musiqaning aqliy rivojlanishga psixologik-pedagogik ta'sirini ochib beruvchi tadqiqotlar*: L.B.Baryaeva, N.L.Belopolskaya, N.Yu.Boryakova, T.A.Vlasova, T.V.Egorova, E.A.Ekjanova, T.N.Nyazeva, L.V.Kuznetsova, I.Y.Y.Kuznetsova, R.I.Lalaeva, K.S.Lebedinskaya, I.F.Markovskaya, N.A.Nikashina, V.B.Nikishina, M.S.Pevzner, E.S.Slepovich, U.V.Ulenkova, N.A.Tsygina, E.V.Shamarina, S.G.Shevchenko va boshqalar;

- *Musiqiy pedagogika va musiqiy psixologiya sohasidagi ilmiy tushunchalar*: E.B.Abdullin, B.V.Asafiev, O.A.Apraksina, L.G.Archajnikova, Yu.B.Aliev, L.A.Barenboim, N.A.Vetlugina, D.B.Kabalevskiy, T.A.Kolysheva, E.D.Kritskaya, E.D.Kritskaya, O.P.Rapatskaya, B.M. Shkolyar va boshqalar.

*Muammoning Markaziy Osiyoda o'rganilishi*: Markaziy Osiyoda psixologiya, pedagogika va musiqashunoslikka oid tadqiqotlar tarkibida musiqaning bola intellektual qobiliyatiga ta'siri yoritilgan. Masalan, Abu Nasr Farobiy "Musiqqa haqida katta kitob", Abu Ali ibn Sino "Kitob ash shifo" (ushbu kitobda musiqaga oid maxsus bo'limi bor), "Tib qonunlari", Al-Xorazmiy "Bilimlar kaliti", Sayfuddin Urmoviy "Oliyjanoblik haqida kitob", "Sharafiya kitobi", Abduraxmon Jomiy "Musiqqa haqida risola", Abduqodir Marog'iy "Musiqqa ilmida ohanglar to'plami", Najmiddin Kavkabi Buxoriy "Risolai musiqiy", "Risoliyi dar bayoni Duvzdax maqom", Al-Xusayniy "Konuniy ilmiy va amaliy musiqiy", Muhammad Nishopuriy "Musiqqa – ilmi haqida kitob", Boqiy Namniy "Zamzamai vaxdat", Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub", "Majolis ul-nafois", Darveshali Changiy "Tuxfat us-surur", "Risolayi musiqiy" kabi asarlarda tadqiqotimiz mavzusiga oid qarashlar mavjud. Shuningdek, Abdurauf Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" asarida musiqaning inson ruhiyatiga va uning aqliy qobiliyatiga ta'sirini bayon qilgan. Bugungi kunda Q.Mamirov "Musiqqa vositasida yoshlarni axloqiy-estetik ma'naviyat ruhida tarbiyalash", O.Soipov "Shaxsni shakllantirishda musiqaning o'rni va ahamiyati", S.Karimov "Bolalar musiqiy idrokini shakllantirishda psixologik yondashuvlarning o'rni", D.Karimova "Musiqqa o'qitishning pedagogik tashxisi va metodlari" kabi maqolalarida; Sh.Abdullayevning "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq musiqqa san'ati orqali axloqiy tarbiyalashni shakllantirish", K.Xudaybaxshovning "Milliy musiqqa ohanglarining inson ruhiyatiga ta'siri" nomli magistrlik dissertatsiyalari musiqaning inson ruhiyatiga, ma'naviyatiga ta'siri tadqiq qilgan.

*Kutilayotgan ilmiy yangiliklar*:

- Umumta'lim maktablari o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini milliy musiqa cholg'ulari bilan olib boriladigan mashg'ulotlar orqali shakllantirish metodikasining ilmiy-pedagogik sharoitlari hamda ustuvor prinsiplari jamiyat talablariga muvofiqligi aniqlashtiriladi;

- Umumta'lim maktablari o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini shakllantirish mexanizmlariga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modeli tizimli, faoliyatli, kreativ, kompetensiyaviy yondashuvlar va faoliyat funksiyalari (intellektual, motivatsion, emotsional, irodaviy, o'z-o'zini boshqarish)ni muvofiqlashtirish asosida takomillashtiriladi;

- Umumta'lim maktablari o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish jarayoniga ta'sir etuvchi pedagogik-psixologik omillar tizimi, irodaviy o'zini nazorat qilish, ijtimoiy ahamiyatli vaziyatlarni egallashning samaradorligini baholash mezonlari hamda ko'rsatkichlari tizimi ishlab chiqiladi;

- Umumta'lim maktablari o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini shakllantirish mexanizmlari refleksiv faoliyat elementlari diagnostik, maqsadli, mazmunli, jarayonli va tahliliy) ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik va demokratik qadriyatlar, insonparvarlik, ideallarga mos yo'nalganlik asosida daraja (zaruriy, optimal, maksimal) ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, umumta'lim maktablarida milliy musiqa cholg'ularidan foydalanishning nazariy pedagogik asoslarini ishlab chiqish natijasida milliy musiqaning o'quvchilar intellektual qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga ta'sir etuvchi omil ekanligini ilmiy asoslashga erishiladi. Shuningdek, tadqiqotdan kelib chiqib, ilmiy tahlil etilishi lozim bo'lgan quyidagi tavsiyalar berildi:

- O'quvchilarda milliy musiqa cholg'ulari vositasida intellektual qobiliyatlarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash;

- Milliy musiqa cholg'ulari vositasida o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarni shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

- O'quvchilarda milliy musiqa cholg'ulari vositasida intellektual qobiliyatlarni shakllantirishni tatbiq etish yo'llarini aniqlash.

## REFERENCES

1. Axmedova Z.K. O'rta Osiyo mutafakkirlari ta'limotida musiqa san'atiga oid falsafiy g'oyalar// Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Samarkand, SamDU., 2008.
2. Dorofeyeva T. Mumtoz musiqaning tarbiyaviy-estetik mohiyati //Sog'lom avlod uchun.- 1999.-№2.
3. Feruza Asqar. Musiqa va inson ma'naviyati /Mas'ul muharrir Hamidova M.-T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti,-2000.
4. Hasanov A. Musiqa va tarbiya. –T;- O'qituvchi. – 1993.
5. Ismoilova N., Abdullayeva D. Ijtimoiy psixologiya. T.: 2013.
6. Madaniyat va san'at atamalarining izohli lug'ati. Toshkent- 2015.
7. Mamedov K., Shoumarov G. Aqli zaif bolalar psixologiyasi. T.:1994.
8. Nazarov A. Forobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida /Mas'ul muharrir F.Karomatov.- T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1995.
9. Jabborova N. Musiqa – millatning ruhi //O'zbekiston ovozi.-2003.-13 mart.

10. Soipova D. Musiqiy va musiqiy nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish. –T;- Fan va texnologiyalar, - 2006.
11. Ворожцова О.А. Музыка и игра в детской психотерапии. –М., 2004.
12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Тошкент, 2008.
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Тошкент, 2008. V жилд.